

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SURXONDARYO VILOYATI JARQO'RG'ON TUMANI
XALQ TA'LIMI MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMI**

**4-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI
ONA TILI VA ADABIYOTI FANI O'QITUVCHISI
YODGOROVA ZAMIRANING 5- SINFI UCHUN
“TIL -IJTIMOIY HODISA” MAVZUSIDAGI
DARS ISHLANMASI**

Darsning texnologik xaritasi

MAVZU	TIL -IJTIMOIY HODISA
Maqsad va vazifalar	Maqsad: ta’limiy-o'quvchilarga tilning ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntirish; tarbiyaviy- mavzu mazmunini singdirish orqali o'quvchilarni til odobiga o'rgatish; rivojlantiruvchi-o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirish. shakllantiriladigan kompetensiyalar: o'quvchilarning o'z fikrini og`zaki hamda yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olishini, o`zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishi, jamoaviy hamkorlikda ishlay olishini shakllantirish, milliy qadriyat- tilga bo`lgan e’tibor kuchaytirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b> o`quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularda mavzu asosida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, kengaytirish; Mavzuga oid berilgan savollarni o`quvchilar tomonidan guruh holatida o`zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o`zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O`quv jarayonining mazmuni	So`z, til, milliy til, til-ijtimoiy hodisa, o`zbek tilida paydo bo`lgan so`zlar.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: suhbat, bumerang, ta’limiy o`yin (“Sababini ayta olaman”, “Maqolni to`ldir”); Shakl: matn bilan ishlash (slaydlar ishtirokida) Usul: induktiv (mashq va topshiriqlar asosida) Vosita: darslik, jadvallar, kompyuter, magnitafon, tillar shajarasi surati. Nazorat: og`zaki nazorat. Baholash: 5 balli tizim asosida
Kutiladigan natijalar	O`qituvchi:</b> mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilishiga erishadi. O`quvchi faolligini oshiradi. O`quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Bir darsda barcha o`quvchi baholanadi. O`quvchilar tomonidan darsni mustaqil o`rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o`rgatadi. O`quvchi: yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni

	o`rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko`p ma'lumotga ega bo`ladi.
Kelgusi rejalar	O`qituvchi:</b> pedagogik mahoratni oshirish. Pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o`z ustida ishlash.</p> <p><b>O`quvchi: mustaqil ishlashni o`rganadi. O`z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo`shimcha materiallar izlaydi, ularni o`rganadi. Do`stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi.

Darsning borishi. 1-bosqich. Dars o`qituvchining kirish so`zi bilan boshlanadi. (5 sinfda Ona tilining izchil kursi boshlanishi va N. Mahmudov (va boshqalar) ning muallifligidagi darslikda berilgan bilimlarni egallash ta`kidlanadi va o`quvchilar diqqati slayddagi ma'lumotga qaratiladi.

Namuna:

“Til faqat aloqa vositasigina bo`lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo`lardi. Xolbuki, til bemisl boy, sehru sinoatga, ruhi ruhoniyyatga, ko`rku-komillikka limmo-lim bir xilqatdir”

(Nizomiddin Mahmudov)

2-bosqich. Magnitafondan “Ona tili” haqidagi **audio matn** (qo`shiq) eshittiriladi. Namuna:

Ota bo`lib otlangan tilim,

Ona bo`lib shodlangan tilim,

Bola bo`lib yodlangan tilim,

Bu ona tilim

Boshimda bosh bor ekan-borsan,

Ko`zimda yosh bor ekan-borsan,

Toki quyosh bor ekan-borsan,

Ona tilim.

Ona tilim, omon bo'l doim,

Baxtiyorman, deyman "Assalom",

O'zbekiston Ona yurtida,


Jaranglasin o'zbekcha kalom. (B. Xolxo'jayev kuyi) va qisqacha suhbat uyushtiriladi (**suhbat metodidan foydalaniladi**). 1. Siz ertalab turib ota-onangizga, oila a'zolaringizga nima deysiz? 2. Ular bilan gaplashganda qaysi tildan foydalansiz? 3. Ona tili deyilishini sababini izohlang. Javoblar umumlashtiriladi. Javoblar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Insonlar bir –biri bilan munosabatda bo'lishiga va aloqaga kirishuvida til xizmat qiladi. Til insonning ongiga ona allasi orqali singadi, shuning uchun ona tili deyiladi va h.k.

3-bosqich. (Sinf taxtasiga "Tillar shajarasi" rasmi ko'rsatmali materialini qo'yilgan). O'quvchilarga jadval tarqatiladi. Jadvalda tushunchalar berilgan va u o'quvchilar tomonidan fikrlar mazmuni bilan to'ldiriladi. (**"Tushunchalar tahlili" metodidan foydalaniladi**). Ilova:

T-r	Tushunchalar	Mazmuni
1.	So'z, til, milliy til	
2.	Dunyo tillari	
3.	Til-ijtimoiy hodisa	
4.	1989- yil 21- oktyabr va h.k	

O'quvchilarning javoblari slaydda berilgan ma'lumotlar asosida tekshiriladi.



Til har bir xalq hayoti bilan bog'liq holda taraqqiy qiladi, boyiydi, sayqallanadi, jamiyatda qadr topadi. Shuning uchun u –ijtimoiy hodisa

4- bosqich. Mustahkamlash. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi va "Sababini ayta olaman" o'yini tashkil qilinadi. Topshiriq. Sinf taxtasiga (yoki ko'rsatmali vosita qo'yiladi) yozilgan quyidagi so'zlar o'zbek tilida paydo bo'lishining sabablarini aniqlash.

Kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat

5-bosqich. Darslik bilan ishlash. 2-mashq bajariladi.

Har bir guruh a'zolari matnni o'qib undagi g'oya haqida o'z fikrlarini bayon qiladilar (*Matn slaydda ko'rsatiladi yoki har bir o'quvchi darslikdan mustaqil o'qiydi*).

O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan xalq maqollarini davom ettirish.

Namuna: ***Oz so'z-.....***

2. Befoyda so'zni aytma,

3. Sevdirgan ham til.....

4. Gapni oz so'zla,

5. Ko'p bilgan oz so'zlar,.....

6. Qilichning zahri ketsa ham,

Bu darsdagi suhbatlar asnosida o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar bilan tanishadi, ularning nutqi, fikrni dalillash malakalari haqida ilk ma'lumot oladi. Shu jihatdan ham bu dars o'qituvchi uchun ahamiyatlidir.

Dars yakunlanadi, o'quvchilarning darsning har bir bosqichidagi ishtiroki rag'batlantiriladi va baholanadi.

Xullas, darsning 1-bosqichidan boshlab o'qituvchi o'quvchilarda **axborot bilan ishlash, kommunikativ va umummadaniy kompetentsiyalarning komponentlarini** shakllantirib boradi.

Uyga vazifa sifatida "O'zingiz o'rganayotgan xorijiy til haqida nimalarni bilasiz?" mavzusida fikrlarni yozish topshiriladi.

